XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-19-123-7-102-K/25 Paxtachi tumani

Paxtachi tumanining 2025-yil 4-chorak mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining yettinchi chaqiriq chaqiriq o‘n to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 657834,0 (olti yuz ellik yetti million sakkiz yuz o‘ttiz to‘rt) ming so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi Paxtachi tumani bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-015-7-102-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandlari tuman mahalliy budjeti hisobidan Paxtachi tumani mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak

daromadlari va xarajatlarini 657834,0 (olti yuz ellik yetti million sakkiz yuz o‘ttiz to‘rt) ming so‘m ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (J.Eshonqulov) Paxtachi tumani mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XUSHBAKOV KAYUM NORBEKOVICH**

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-123-7-102-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Paxtachi tumanining 2025-yil 4-chorak mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

a) Xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-015-7-102-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish summasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**14617000**	**657834**	**15274831**

b) Xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-015-7-102-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish summasi	Jami
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	**1544000**	**657834**	**2201834**